



XAVFSIZ MAHALLA KONSEPSIYASI DOIRASIDA MANZILLI PROFILAKTIK CHORA-TADBIRLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Kushbakov Dilshod Musurmanqulovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati kafedrası
dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20454286>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26-may 2026 yil
Ma'qullandi: 28-may 2026 yil
Nashr qilindi: 30-may 2026 yil

KEY WORDS

xavfsiz mahalla, manzilli profilaktika, ijtimoiy profilaktika, kriminogen vaziyat, mahalla yettiligi, profilaktika inspektori, yo'l xaritasi, elektron nazorat, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish.

ABSTRACT

Maqolada "xavfsiz mahalla" konsepsiyasi doirasida manzilli profilaktik chora-tadbirlar tizimini takomillashtirishning tashkiliy-huquqiy va kriminologik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvardagi PQ-1-son qarorida belgilangan yaxlit manzilli ishlash, ijtimoiy profilaktika, "mahalla – tuman – viloyat" darajasidagi yo'l xaritalari, elektron nazorat va fuqarolar murojaatlariga tezkor munosabat bildirish mexanizmlariga tayangan holda ishlab chiqildi. Maqolada Chilonzor tumani "Botirma" mahalla fuqarolar yig'inida IIV Akademiyasi tomonidan amalga oshirilgan ilmiy-amaliy tadbirlar natijalari empirik asos sifatida baholanib, xavf omillarini aniqlash, xonadonbay va fuqarobay tahlil, ijtimoiy profilaktika obyektlarini nomma-nom biriktirish, texnik xavfsizlik infratuzilmasini mustahkamlash hamda raqamli aloqa kanallaridan foydalanish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

Yangi O'zbekiston sharoitida jamoat xavfsizligini ta'minlashning eng muhim bo'g'ini mahalla darajasidagi profilaktik boshqaruvdir. Chunki huquqbuzarlik, oilaviy nizo, ishsizlik, voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, noqonuniy migratsiya, kiberxavf, tungi vaqtdagi nazoratsiz xizmat ko'rsatish obyektlari yoki jamoat joylaridagi yoritish muammosi ko'pincha abstrakt hududda emas, balki aniq xonadon, ko'cha, savdo nuqtasi, hostel, ko'p qavatli uy yo'lgi yoki aholi bilan bevosita ishlaydigan ijtimoiy institut kesimida namoyon bo'ladi. Shu bois "xavfsiz mahalla" konsepsiyasi huquqbuzarliklar profilaktikasini umumiy targ'ibot bilan cheklab qo'ymaydi, balki kriminogen omillarni erta topish, ularni aniq manzilda bartaraf etish, mas'ul subyektlarni nomma-nom biriktirish, natijani o'lchash hamda aholining ishonchini mustahkamlashga qaratilgan yaxlit ilmiy-amaliy tizim sifatida tushunilishi lozim.

Mazkur masalaning dolzarbligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvardagi PQ-1-son "Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo'nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida yanada aniq ifodasini topdi. Qarorda ijtimoiy

profilaktika samaradorligini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan holda mahallalarda xavfsiz muhitni ishonchli ta'minlash bo'yicha manzilli profilaktik chora-tadbirlar tizimini samarali joriy etish orqali jinoyatchilikni keskin kamaytirish maqsadi qo'yildi [1]. Qarorning ilmiy ahamiyati shundaki, u profilaktika faoliyatini shunchaki huquqni qo'llash amaliyoti emas, balki omillarni tahlil qilish, muammolarni ijtimoiy-huquqiy yechish, jamoat nazorati, raqamli axborot almashinuvi va natijadorlikni baholash bilan uzviy bog'liq davlat boshqaruvi modeli sifatida talqin etadi.

Xavfsiz mahalla konsepsiyasining huquqiy negizi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan inson qadrini ulug'lash, davlat organlarining jamiyat va fuqarolar oldidagi mas'uliyati, qonuniylik va ijtimoiy adolat tamoyillariga borib taqaladi [3]. O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni esa profilaktika sohasidagi munosabatlarni tartibga solib, umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktika choralarni tizimli qo'llash uchun bazaviy maydon yaratadi [4]. "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonun ichki ishlar organlari faoliyatida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularni himoya qilish talabini belgilaydi [5]. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi qonunchilik esa mahallani ijtimoiy hamkorlik, mahalliy ehtiyojlarni aniqlash va fuqarolar faolligini safarbar etish instituti sifatida namoyon qiladi [6].

Ilmiy jihatdan qaralganda, mahallada xavfsiz muhitni yaratish masalasi kriminologiya, ma'muriy huquq, jamoat xavfsizligi nazariyasi, sotsiologiya, boshqaruv nazariyasi va raqamli davlat xizmatlari konsepsiyasining kesishgan nuqtasida turadi. Z.S. Zaripov va I. Ismailov kriminologik tahlilda jinoyatchilikka sabab bo'luvchi omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish profilaktikaning markaziy vazifasi ekanini asoslagan [8]. I. Ismailov, J.S. Muxtorov va S.B. Xo'jaqulov ichki ishlar organlarining profilaktik faoliyatida mahalla, jamoatchilik, idoralararo hamkorlik va individual ta'sir choralarning uyg'un qo'llanishi muhimligini ko'rsatadi [9]. S.B. Xo'jaqulov huquqbuzarliklar umumiy profilaktikasini takomillashtirishda aholining huquqiy madaniyati, muhitga ta'sir etuvchi ijtimoiy sabablar va profilaktika subyektlari o'rtasidagi muvofiqlashtirishni alohida yo'nalish sifatida baholaydi [11]. Ushbu yondashuvlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1 qarorida belgilangan ilmiy-amaliy, xonadonbay va fuqarobay ishlash talablariga mazmunan yaqin turadi.

Xorijiy kriminologiyada ham joyga yo'naltirilgan profilaktika g'oyasi uzoq vaqtdan buyon muhim konseptual yo'nalish hisoblanadi. Herman Goldstein muammoga yo'naltirilgan politsiya faoliyati nazariyasida politsiya faqat hodisaga munosabat bildiruvchi kuch bo'lib qolmasdan, takrorlanuvchi muammolarning ildiz sabablarini aniqlab, ularni bartaraf etishi kerakligini ta'kidlagan [12]. Lawrence Sherman, Patrick Gartin va Michael Buerger tomonidan ishlab chiqilgan "hot spots" yondashuvi esa jinoyatlar hududda teng taqsimlanmasligi, balki ayrim manzillar va mikrohududlarda zichlashishini empirik asosda ko'rsatgan [13]. John Eck va David Weisburd jinoyat sodir bo'ladigan joylarni tahlil qilish jinoyatchilikni tushuntirishda mahalla yoki shaxs darajasidagi umumiy nazariyalar bilan bir qatorda mustaqil ahamiyat kasb etishini asoslaydi [14]. Anthony Braga, Andrew Papachristos va David Hureauning tizimli sharhlari esa hot spots policing amaliyoti jinoyatlarni kamaytirishda e'tiborga molik natija berishini, ayniqsa muammoga yo'naltirilgan ta'sir choralari oddiy patrul ko'paytirishdan samaraliroq bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi [15].

Shu bilan birga, ilmiy bahsning markaziy masalasi profilaktika faoliyatining qaysi modeli ustuvor bo'lishi kerakligi bilan bog'liq. Birinchi yondashuv profilaktikani asosan nazorat, patrul, ma'muriy bayonnoma, jamoat joylarida ko'rinadigan politsiya ishtiroki va huquqiy ta'sir choralari kuchaytirish orqali tushuntiradi. Ikkinchi yondashuv esa xavfsizlikni ijtimoiy xizmatlar, bandlik, oilaviy nizolarni erta aniqlash, yoshlar va ayollar bilan individual ishlash, uy-joy va infratuzilma muammolarini hal qilish, aholining ishonchini oshirish hamda raqamli muloqot orqali shakllantirishni taklif etadi. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu ikki yo'nalish bir-birini inkor etmaydi; aksincha, PQ-1 mazmuni ularni yagona boshqaruv sikliga birlashtirishni talab qiladi: xavfni aniqlash, sababni tahlil qilish, manzilli chorani belgilash, ijrochiga birlashtirish, raqamli nazorat qilish va natijani baholash.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1 qarori "mahalla – tuman – viloyat" darajasidagi yo'l xaritalari, mas'ul rahbar va muassasalarni hududlarga birlashtirish, ijtimoiy profilaktika haftaligi, elektron nazorat platformasi, fuqarolarning huquqbuzarlik haqidagi murojaatlarini planshetlar orqali real vaqt rejimida qabul qilish, "Mening inspektorim" mobil ilovasini ishlab chiqish va "E-ijtimoiy profilaktika" tizimining "E-nizoli oila" modulini joriy etish kabi vositalarni nazarda tutadi [1]. Bunday vositalar profilaktik faoliyatni qog'ozbozlikka asoslangan reja-tadbirlar majmuasidan ma'lumotga tayanuvchi, hisobdor va tezkor boshqaruv tizimiga o'tkazadi. Shu jihatdan xavfsiz mahalla konsepsiyasi profilaktika inspektori, mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, soliqchi, ijtimoiy xodim hamda boshqa mas'ullar o'rtasidagi vazifalarni shunchaki taqsimlash emas, balki har bir vazifani aniq indikator, muddat, ijrochi va qayta aloqa kanali bilan bog'lashni talab qiladi.

Maqolaning empirik asosini tashkil etuvchi "Botirma" MFY tajribasi ana shu konseptual talablarning amaliy ko'rinishini namoyon etadi. Taqdimot ma'lumotlariga ko'ra, IIV Akademiyasi tomonidan Chilonzor tumani "Botirma" MFYga uch nafar professor-o'qituvchi, bir nafar magistratura tinglovchisi va besh nafar kursant birlashtirilgan; beshta yo'nalish va yigirma olti banddan iborat ikkinchi chorak rejasi ishlab chiqilgan; reja bandlari ishchi guruh hamda "mahalla yettiligi" vakillariga taqsimlangan [2]. Ushbu holat mahallaga bir martalik reytda uslubida emas, balki ilmiy-amaliy guruh, o'quv jarayoni va mahalliy institutlar integratsiyasiga asoslangan holda kirib borilganini ko'rsatadi. Bunday model professor-o'qituvchilar ilmiy salohiyatini amaliyot bilan bog'lash, kursantlarda profilaktik tahlil ko'nikmasini rivojlantirish va mahalla yettiligini metodik jihatdan qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.

"Botirma" MFYda dastlabki sodir etilgan jinoyatlar, ma'muriy huquqbuzarliklar va "102" xabarlar bo'yicha tahlildan boshlangan. Xususan, 2023–2026-yillarning uch oylik davriga doir 44 ta oldi olinishi mumkin bo'lgan jinoyat, 2026-yilda qayd etilgan 179 ta ma'muriy huquqbuzarlik hamda 329 ta "102" xabari o'rganilgan [2]. Mazkur yondashuv profilaktika choralari umumiy sezgi yoki subyektiv taxminga emas, balki huquqiy statistik ma'lumot, murojaatlar geografiyasi va takrorlanuvchi manzillar tahliliga asoslash zarurligini ko'rsatadi. Jinoyat o'choqlari sifatida "Sofa", "Yagona", "Dubai", "Pocha" hostellari hamda 24/7 rejimida ishlaydigan Al-Xorazmiy ko'chasining 600 metrlik qismi belgilangan [2]. Bu natija xorijiy "hot spots" nazariyasi bilan uyg'un: huquqbuzarliklar ko'pincha butun mahallaga bir xilda tarqalmaydi, balki xizmat ko'rsatish obyektlari, tranzit ko'chalar, yoritilmagan joylar va nazorat sust bo'lgan mikromanzillarda jamlanadi.

Manzilli profilaktikaning ikkinchi komponenti xonadonbay va fuqarobay o'rganishdir. "Botirma" MFYda 1871 ta xonadon va 4479 nafar shaxs o'rganilgan, 378 ta murojaat ko'rib

chiqilgan, 310 ta ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirilgan va 816 ta profilaktik suhbat o'tkazilgan [2]. Bundan tashqari, 2546 ta xonadon "qizil", "sariq" va "yashil" toifalarga ajratilib, 4 ta uy va 288 ta xonadon "qizil", 15 ta uy va 1246 ta xonadon "sariq", 15 ta uy va 1012 ta xonadon "yashil" toifada baholangan; 57 ta ijtimoiy profilaktika obyekti aniqlangan [2]. Bu tasniflash profilaktika resurslarini oqilona taqsimlash uchun zarur: "qizil" toifada intensiv individual ish, "sariq" toifada monitoring va maslahat, "yashil" toifada esa umumiy huquqiy targ'ibot hamda ijtimoiy faollikni rag'batlantirish ustuvor bo'ladi.

Tasniflashning ilmiy-amaliy qimmatini shundaki, u "hamma uchun bir xil tadbir" yondashuvini rad etadi. Huquqbuzarliklar profilaktikasi obyektiv xavf darajasiga mutanosib bo'lmasa, bir tomondan, yuqori xavfli shaxs va manzillar e'tibordan chetda qoladi, ikkinchi tomondan, past xavfli guruhlariga ortiqcha ma'muriy yuk tushadi. Shuning uchun mahalla kesimida risk pasportini yuritish maqsadga muvofiq: unda jinoyat va ma'muriy huquqbuzarliklar dinamikasi, "102" xabarlarini zichligi, nizoli oilalar, ishsizlar, nazoratsiz yoshlar, ijtimoiy yordamga muhtoj shaxslar, tungi obyektlar, texnik xavfsizlik nuqtalari, kiberxavfga moyil aholi qatlamlari va jamoatchilik fikri indikatorlari mujassam bo'lishi lozim. Bunday pasport shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish talablari asosida yuritiladi va faqat profilaktika maqsadiga xizmat qilishi kerak.

Uchinchi komponent moddiy-texnik va situatsion profilaktika vositalaridir. "Botirma" MFYda 6 ta ko'cha yoritgichi, 5 ta tashvish tugmasi o'rnatilgan, 3800 kvadrat metr hudud obodonlashtirilgan, 62 ta qo'riqlash puliti yo'lga qo'yilgan, 34 ta ko'p qavatli uylarning barcha kirish yo'laklariga tashvish tugmalari joylashtirilgan [2]. Bu tadbirlar huquqbuzarlikka sharoit yaratadigan muhitni o'zgartirishga qaratilgan bo'lib, klassik situatsion profilaktika tamoyillariga mos keladi. Yoritish, signalizatsiya, qo'riqlash pultlari va patrul yo'nalishi jinoyat sodir etish imkoniyatini kamaytiradi, potentsial huquqbuzarda aniqlanish xavfini oshiradi, fuqaroda esa himoyalanganlik hissini kuchaytiradi. Shu bilan birga, texnik vositalar ijtimoiy ish o'rnini bosa olmaydi; ular individual, oilaviy va jamoaviy profilaktika choralari bilan birgalikda qo'llangandagina barqaror natija beradi.

To'rtinchi komponent raqamli va kommunikativ profilaktikadir. Taqdimotga ko'ra, 340 nafar shaxsning Telegram ilovasiga ikki bosqichli himoya o'rnatilgan, 450 nafar shaxs "Cyber_102" tizimiga ulangan, 2311 nafardan ortiq fuqaro kiberjinoyatlar bo'yicha tushuntirish bilan qamrab olingan, 1488 nafardan ortiq fuqaro "Mening inspektorim" mobil ilovasiga ulangan [2]. Bu raqamlar shuni ko'rsatadiki, xavfsiz mahalla endilikda faqat ko'cha, uy va jamoat joylari xavfsizligidan iborat emas; u raqamli muhitda fuqarolarni firibgarlik, akkaunt buzilishi, bank kartalari bilan bog'liq jinoyatlar, yolg'on havolalar va ijtimoiy tarmoqlardagi xavflardan himoya qilishni ham o'z ichiga oladi. PQ-1 qarorida "Mening inspektorim" mobil ilovasi orqali profilaktika inspektori bilan onlayn muloqot qilish, foto, audio, video va tashvish xabarlarini yuborish imkoniyatini yaratish belgilanganligi bu yo'nalishga normativ asos beradi [1].

Beshinchi komponent ijtimoiy profilaktika va bandlik masalasidir. "Botirma" MFYda 33 nafar fuqaro ishga joylashtirilgan, 6 ta jinoyat muhokamasi tashkil etilgan, 5 nafar shaxsning muammolari o'rganilib, "mahalla yettiligi" tizimiga yo'naltirilgan, 2311 ta xonadon o'rganilishi natijasida ijtimoiy profilaktika tadbirlari o'tkazilishi lozim bo'lgan qo'shimcha 5 nafar shaxs aniqlanib, "mahalla yettiligi" vakillariga nomma-nom birlashtirilgan, 6 ta taqdimnoma kiritish masalasi tegishli mas'ullarga yuborilgan [2]. Mazkur ma'lumotlar ijtimoiy profilaktika faqat

“suhbat o‘tkazish” emas, balki bandlik, huquqiy yordam, oilaviy muammo, ijtimoiy xizmat, moddiy ko‘mak va monitoringni birlashtirgan kompleks jarayon ekanini tasdiqlaydi. Ayni nuqtada PQ-1dagi “Ijtimoiy profilaktika haftaligi” instituti alohida ahamiyatga ega: unda ijtimoiy profilaktika obyektlari muammolarini o‘rganish, mehnat yarmarkalari, huquqiy maslahatlar, hokimlar qabuli va jamoatchilik tadbirlari nazarda tutilgan [1].

Aholi fikrini o‘rganish xavfsiz mahalla konsepsiyasining oltinchi va kam baholanayotgan tarkibiy qismidir. “Botirma” MFYda 5120 nafar fuqaro o‘rtasida mahalla yettiligi faoliyati bo‘yicha anonim so‘rovnoma o‘tkazilgan; respondentlarning 87,8 foizi mahalladagi xavfsizlik holatini yaxshi deb baholagan; 84,4 foizi mahalla yettiligi faoliyatidan qoniqish bildirgan; 57,5 foizi mahalla raisi, profilaktika inspektori va xotin-qizlar faoli ishini ijobiy baholagan; shu bilan birga, aholining 70 foizi mahalla yettiligiga murojaat qilmagan va 60 dan ortiq taklif hamda tavsiya kelib tushgan [2]. Bu ko‘rsatkichlar ikki xulosaga olib keladi: birinchidan, aholi xavfsizlikni asosan ijobiy qabul qilmoqda; ikkinchidan, murojaat qilish madaniyati, muammo haqida xabar berish kanallari va mahalla yettiligi bilan muntazam muloqot hali to‘liq institutlashmagan. Demak, manzilli profilaktikaning natijadorligi faqat jinoyatlar soni bilan emas, balki aholining ishonchi, murojaatga tayyorligi va takliflarining amaliyotga kiritilishi bilan ham o‘lchanishi lozim.

Shu asosda amaliyotga joriy etilishi mumkin bo‘lgan birinchi taklif mahalla miqyosida “kriminogen va ijtimoiy xavf pasporti”ni majburiy metodik hujjat sifatida ishlab chiqishdir. Ushbu pasport qog‘oz shakldagi umumiy ma‘lumotnoma emas, balki choraklik yangilanadigan analitik hujjat bo‘lishi zarur. Unda jinoyat, ma‘muriy huquqbuzarlik, “102” xabarlari, “Mening inspektorim” orqali kelgan murojaatlar, anonim so‘rovnoma natijalari, xonadon toifalari, ijtimoiy profilaktika obyektlari, texnik vositalar holati, kiberxavf indikatorlari, oilaviy nizolar va bandlik ko‘rsatkichlari yagona tahliliy maydonga kiritiladi. Pasportni mahalla profilaktika inspektori yakka o‘zi emas, balki mahalla yettiligi, tuman IIB, hokimlik, prokuratura, ijtimoiy xizmat va tegishli ta‘lim muassasalari vakillari bilan hamkorlikda yuritishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchi taklif manzilli profilaktika choralari uch bosqichli amaliy siklga keltirishdir. Birinchi bosqichda diagnostika o‘tkazilib, jinoyat o‘choqlari, xavf guruhlari, ehtimoliy jabrlanuvchilar, texnik kamchiliklar va ijtimoiy muammolar aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda har bir xavfga mos choralar belgilanadi: masalan, ko‘cha jinoyatlari uchun yoritish, tashvish tugmasi va patrul; oilaviy nizolar uchun “E-nizoli oila” moduliga kiritish, mediatorlik va ijtimoiy xizmat; ishsizlik uchun mehnat yarmarkasi va kasbga yo‘naltirish; kiberxavf uchun raqamli savodxonlik va Cyber_102ga ulash; hostel va tungi obyektlar uchun ro‘yxatga olish, tekshiruv, profilaktik suhbat va videokuzatuv integratsiyasi. Uchinchi bosqichda natija baholanadi: murojaatlar soni, takroriy huquqbuzarlik, ishga joylashtirish, oilaviy nizoning yechimi, fuqarolarning qoniqishi va texnik vositalar ishlash holati qayta tekshiriladi.

Uchinchi taklif “mahalla yettiligi” faoliyatida nomma-nom javobgarlikni kuchaytirish bilan bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1 qarorida mas‘ul rahbarlar va muassasalar zimmasiga hududiy yo‘l xaritalaridagi chora-tadbirlarni to‘laqonli amalga oshirish hamda ijtimoiy profilaktika tizimini samarali yo‘lga qo‘yish bo‘yicha qat‘iy shaxsiy javobgarlik yuklanadi [1]. Bu talab mahalla darajasida ham aniq ifodalanishi lozim: har bir “qizil” xonadon, har bir ijtimoiy profilaktika obyekti va har bir jinoyat o‘chog‘i bo‘yicha mas‘ul shaxs, muddat, chora, kutilayotgan natija va qayta baholash sanasi belgilanadi. Nomma-nom biriktirish

ma'muriy bosim vositasi emas, balki "muammo egasiz qolmasligi"ni ta'minlovchi boshqaruv tamoyili sifatida qaralishi kerak.

To'rtinchi taklif ilmiy-ta'lim muassasalari ishtirokini doimiylashtirishdir. "Botirma" MFY tajribasida professor-o'qituvchi, magistratura tinglovchisi va kursantlar ishtiroki profilaktik tahlilni chuqurlashtirgan [2]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1 qarori ham ilmiy yondashuvlar asosida oila-turmush munosabatlari, ayollar va yoshlar jinoyatchiligi omillarini tahlil qilishni talab qiladi [1]. Shundan kelib chiqib, har bir kriminogen vaziyati murakkab mahallaga kamida bir chorak davomida ta'lim muassasasi ilmiy guruhi birlashtirilishi, ular statistik tahlil, anonim so'rovnoma, jinoyat o'chog'i xaritasi, ijtimoiy profilaktika obyektlari diagnostikasi va samaradorlik bahosini ishlab chiqishi maqsadga muvofiq. Bu jarayon kursantlar uchun amaliy ko'nikma, mahalla uchun metodik yordam, tuman IIB uchun esa asoslangan qaror qabul qilish manbai bo'ladi.

Beshinchi taklif raqamli tizimlar integratsiyasi bilan bog'liq. Amaldagi tajribada "102", "Mening inspektorim", Cyber_102, xonadonbay o'rganish natijalari, ma'muriy bayonnomalar, profilaktik suhbatlar va ijtimoiy xizmatlarga yo'naltirish ma'lumotlari turli formatlarda yuritilishi mumkin. Bunda axborot takrorlanishi, vaqt yo'qotilishi yoki ayrim xatarlarning ko'rinmay qolishi ehtimoli mavjud. Shu sababli mahalla kesimida "profilaktik ishlar elektron kartasi" joriy etilishi lozim. Unda shaxsga doir ma'lumotlardan foydalanish qonuniylik, zaruriyat va mutanosiblik mezonlari bilan chegaralanadi; har bir yozuv bo'yicha kim kiritgani, qachon kiritgani va qaysi chora ko'rilgani aks etadi; yopilgan holatlar alohida belgilanadi; ochiq masalalar esa mas'ul rahbarning elektron nazorat panelida ko'rinib turadi.

Oltinchi taklif natijadorlik mezonlarini qayta ko'rib chiqishdir. Bugungi profilaktika amaliyotida ko'pincha o'tkazilgan tadbirlar soni, suhbatlar miqdori yoki tarqatilgan flayerlar hajmi asosiy indikator sifatida ko'rsatiladi. Biroq xavfsiz mahalla konsepsiyasi uchun jarayon ko'rsatkichlari yetarli emas. Masalan, "Botirma" MFYda 559 ta targ'ibot tadbiri, 5000 dan ortiq flayer, 816 ta profilaktik suhbat va 2311 nafardan ortiq fuqaroga kiberjinoyatlar bo'yicha tushuntirish berilgani muhim [2]. Lekin ularning samaradorligi keyingi bosqichda murojaatlar sifati, kiberfiribgarlikdan himoyalani darajasi, fuqarolarning ikki bosqichli himoyadan foydalanishi, takroriy huquqbuzarlik kamayishi va aholi qoniqishi orqali baholanishi zarur. Shu bois mahalla bo'yicha indikatorlar "amalga oshirildi" degan hisobotdan "qanday ijobiy o'zgarish yuz berdi" degan natijaviy bahoga o'tishi lozim.

Yettinchi taklif huquqiy asoslarni yanada aniqlashtirishga qaratilgan. "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunda ijtimoiy profilaktika obyektlarini aniqlash, ularga ko'mak ko'rsatish va idoralararo hamkorlikni raqamli tarzda yuritish mexanizmlarini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1 qarori talablariga mos holda yanada batafsil belgilash maqsadga muvofiq. Xususan, "ijtimoiy profilaktika obyekti", "manzilli profilaktik chora", "mahalla risk pasporti", "elektron profilaktik karta", "qizil, sariq, yashil toifa" kabi ishchi tushunchalarning me'yoriy tavsifi profilaktika amaliyotida bir xillikni ta'minlaydi. Bunda inson huquqlari kafolatlari, shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligi, kamsitishga yo'l qo'ymaslik va ijtimoiy yordamni majburiy nazoratga aylantirmaslik kabi konstitutsiyaviy mezonlar ustuvor bo'lishi zarur.

Sakkizinchi taklif jinoyat o'choqlarini boshqarish bo'yicha maxsus lokal algoritmi joriy etishdir. Agar tahlil natijasida hostel, tunu kun ishlaydigan ko'cha qismi, bozor atrofi, avtoturargoh, ko'p qavatli uy yo'lasi yoki boshqa mikrohudud jinoyat o'chog'i sifatida

aniqlansa, uch ish kuni ichida obyekt pasporti tuziladi; yetti ish kuni ichida profilaktika, texnik xavfsizlik, ma'muriy nazorat, yoritish, kameralar, qo'riqlash va ijtimoiy tushuntirish choralari o'z ichiga olgan mini-reja tasdiqlanadi; bir oy yakunida "102" xabarlarini, huquqbuzarliklar va aholi fikri asosida qayta baholanadi. Bu algoritmi "Botirma" MFYda hostellar va Al-Xorazmiy ko'chasi bo'yicha aniqlangan tajribaga tayanadi [2]. Shu orqali profilaktika rejalari hudud nomi bilan umumiy qolmasdan, aniq muammo joyiga bog'lanadi.

To'qqizinchi taklif aholining ishonchini alohida profilaktik resurs sifatida baholashdir. Aholi huquqbuzarlik haqida xabar bermasa, nizoli oilalar yashirin qolsa, kiberfiribgarlik qurbonlari uyalib murojaat qilmasa yoki yoshlar muammosi faqat jinoyat sodir etilgandan keyin aniqlansa, har qanday kuchli texnik tizim ham yetarli bo'lmaydi. "Botirma" MFYdagi anonim so'rovnomasi aholining katta qismi xavfsizlik holatini ijobiy baholayotganini ko'rsatsada, mahalla yettiligiga murojaat qilmaganlar ulushi yuqoriligi doimiy muloqot platformalarini kuchaytirishni talab qiladi [2]. Shu bois mahallada oyiga kamida bir marta "ochiq xavfsizlik muloqoti" o'tkazilishi, unda profilaktika inspektori, mahalla raisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi va ijtimoiy xodim aholi savollariga javob berishi, kelgan takliflar esa elektron reyestrda qayd etilishi kerak.

Ilmiy-amaliy nuqtayi nazardan taklif etilayotgan model "diagnostika – manzilli ta'sir – ijtimoiy qo'llab-quvvatlash – texnik mustahkamlash – raqamli qayta aloqa — natijaviy baholash" sikliga asoslanadi. Diagnostika bosqichida huquqbuzarliklar, murojaatlar va ijtimoiy xavflar xaritalanadi. Manzilli ta'sir bosqichida har bir xavf turi uchun tegishli subyekt va chora belgilanadi. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bosqichida ishsizlik, oilaviy nizo, ijtimoiy yordamga muhtojlik va huquqiy savodsizlikka yechim beriladi. Texnik mustahkamlash bosqichida yoritish, tashvish tugmalari, qo'riqlash pulti, videokuzatuv va patrul yo'nalishi qayta ko'rib chiqiladi. Raqamli qayta aloqa bosqichida "Mening inspektorim", "102", Cyber_102 va elektron profilaktika kartasi orqali ma'lumot yig'iladi. Natijaviy baholash bosqichida jinoyatchilik dinamikasi, takroriy huquqbuzarlik, aholi qoniqishi va ijtimoiy muammo yechimi tahlil qilinadi.

Ushbu modelni amaliyotga joriy etishda muhim shartlardan biri profilaktika inspektorining vazifalarini haddan tashqari kengaytirib yubormaslikdir. Profilaktika inspektori xavfsiz mahalla tizimining markaziy ijrochisi bo'lsa-da, ijtimoiy muammolarni yolg'iz hal qila olmaydi. Shuning uchun uning roli "hamma narsani bajaruvchi" dan "xavfni aniqlovchi, huquqiy ta'sir choralari qo'llovchi va idoralararo jarayonni koordinatsiya qiluvchi" mutaxassis roliga o'tishi kerak. Bandlik masalasi hokim yordamchisi va mehnat organlari bilan, oilaviy nizo xotin-qizlar faoli, sud va ijtimoiy xizmatlar bilan, yoshlar muammosi yoshlar yetakchisi va ta'lim muassasalari bilan, kiberxavf esa ixtisoslashtirilgan xizmatlar bilan birgalikda hal etilishi lozim. Bu yondashuv PQ-1 qaroridagi shaxsiy javobgarlik va idoralararo muvofiqlashtirish talablariga to'la mos keladi [1].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, xavfsiz mahalla konsepsiyasi doirasida manzilli profilaktik chora-tadbirlar tizimini takomillashtirishning asosiy yo'nalishi profilaktikani ko'p sonli tadbirlar yig'indisidan dalillarga asoslangan boshqaruv texnologiyasiga aylantirishdan iborat. Bunda huquqiy asos, ilmiy tahlil, mahalla institutlari, texnik infratuzilma, raqamli muloqot va ijtimoiy yordam yagona maqsadga — fuqarolarning hayoti, sog'lig'i, mol-mulki, sha'ni va qadr-qimmatini real himoya qilishga xizmat qilishi lozim. "Botirma" MFY tajribasi shuni ko'rsatadiki, professor-o'qituvchilar, magistratura tinglovchilari, kursantlar va mahalla yettiligi hamkorligi asosida jinoyat o'choqlarini aniqlash, xonadonlarni xavf darajasiga ko'ra

tasniflash, texnik vositalarni o'rnatish, kiberxavf bo'yicha tushuntirish berish, bandlik va ijtimoiy muammolarni hal qilish orqali profilaktika faoliyati ancha manzilli va o'lchanadigan shaklga keladi [2].

Shu munosabat bilan respublika miqyosida har bir murakkab mahalla uchun kriminogen va ijtimoiy xavf pasporti yuritish, jinoyat o'choqlari bo'yicha lokal algoritm joriy etish, xonadonlarni xavf darajasiga ko'ra choraklik qayta baholash, "mahalla yettiligi" vakillarini nomma-nom mas'ul etib birlashtirish, ta'lim muassasalari ilmiy guruhlarini kriminogen hududlarga tizimli jalb qilish, "Mening inspektorim" va "E-ijtimoiy profilaktika" tizimlari bilan bog'langan elektron profilaktik karta yaratish, natijadorlikni faqat tadbirlar soni emas, balki jinoyatlar kamayishi, murojaatlarga tezkor munosabat, ijtimoiy muammo yechimi va aholi ishonchi bilan baholash maqsadga muvofiq. Ana shunda PQ-1 qarorida belgilangan yaxlit manzilli ishlash tizimi mahalla hayotida real, barqaror va aholiga seziladigan xavfsizlik muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar:

- [1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvardagi PQ-1-son "Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo'nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/uz/docs/-7973611>.
- [2] Chilonzor tumani IIOFMB statistik malumotlari 2026-yil 27-aprel holatiga ko'ra.
- [3] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan yangi tahrir. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/docs/-6445145>.
- [4] O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi O'RQ-371-son "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/docs/-2387357>.
- [5] O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentyabrdagi O'RQ-407-son "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/docs/-3027843>.
- [6] O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 14-apreldagi 758-I-son "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonuni, 2013-yil 22-apreldagi O'RQ-350-son Qonun bilan yangi tahrirda. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/docs/-2156899>.
- [7] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi PQ-1-son "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/docs/-7330260>.
- [8] Zaripov Z.S., Ismailov I. Kriminologiya (Umumiy qism): Darslik. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1996.
- [9] Ismailov I., Muxtorov J.S., Xo'jaqulov S.B. Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati: O'quv qo'llanma. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017.
- [10] Tursunov A.S., Ismailov I., Fazilov I.Yu., Alimov B.F., Amirov Z.A., Xo'jaqulov S.B., Saitqulov Q.A., G'ofurov Sh.R. Ichki ishlar organlari profilaktik faoliyati: Ma'ruzalar kursi. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018.

- [11] Xo'jaqulov S.B. Huquqbuzarliklar umumiy profilaktikasini takomillashtirish: Monografiya. Mas'ul muharrir: I.Yu. Fazilov. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019.
- [12] Goldstein H. Problem-Oriented Policing. Philadelphia: Temple University Press, 1990.
- [13] Sherman L.W., Gartin P.R., Buerger M.E. Hot Spots of Predatory Crime: Routine Activities and the Criminology of Place. *Criminology*. 1989. Vol. 27. P. 27–56.
- [14] Eck J.E., Weisburd D. Crime Places in Crime Theory. In: Eck J.E., Weisburd D. (eds.). *Crime and Place. Crime Prevention Studies*. Vol. 4. Monsey, NY: Criminal Justice Press, 1995.
- [15] Braga A.A., Papachristos A.V., Hureau D.M. The Effects of Hot Spots Policing on Crime: An Updated Systematic Review and Meta-Analysis. *Justice Quarterly*. 2014. Vol. 31, No. 4. P. 633–663.

